



*Jo'rayev Islom Mamasodikovich*

*FarDU ingliz filologiyasi kafedrasasi o'qituvchisi*

## QUDRATLI SALTANATNING OILAVIY-MAISHIY MUAMMOLARI

**Annotatsiya:** Maqolada Amir Temur asos solgan qudratli sultanatning ichki oilaviy nizolar tufayli parchalanganligi tahlil qilinadi. Oilaviy mojarolar davlatni ichki siyosiy barqarorlikdan mahrum qilib, uning qulashiga asosiy sabab bo'lgan. Maqolada aynan ushbu ziddiyatlarning davlat boshqaruviga salbiy ta'siri mumtoz adabiy manbalar, xususan, "Boburnoma" asosida tadqiq doirasiga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy hayot, vorislik, oilaviy nizo, toju-taxt, hokimiyat

Sohibqiron Amir Temur nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki oilaviy munosabatlarda hamadolat va ahillik hukm surishi lozimligiga o'z "Tuzuklar"ida, amaliy faoliyatida katta e'tibor bilan qaragan. O'z avlodlarining o'zaro ahil va ittifoqlikda yashashlari, munosib vorislari bo'lishlari uchun amaliy xatti-harakatlarni amalga oshirgan. Ammo sohibqiron Temur vafotidan so'ng u tuzgan qudratli sultanat aynan noqobil vorislarning oilaviy-maishiy mashmashalari, xudbinliklari hamda mehr-oqibatni unutganliklari oqibatida parchalanib keta boshlagan. Chunonchi, Amir Temurning bag'rikenglik, kechirimlilik, xatolardan tegishli xulosa chiqara bilishlik haqidagi o'git-vasiyatlari tezda unutiladi.

Chunonchi, «Tuzuklar»da shunday deyiladi: «Har qanday odam mening devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham, uni kechirsinlar, ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh yo'liga kirsa, u holda gunohiga yarasha jazolansin» [2: 78]

Bobur ham bobokaloni Amir Temur izidan borib, bag'rikenglik, kechirimlilik siyosatiga umr bo'yini amal qilgan. Jumladan, ne-ne mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilgan Kobulni vaqtinchalik tark etib, Hirota ketganida xolasining eri Muhammad Husayn mirzo o'z o'g'li Mirzoxonni hukmdor deb e'lon qiladi. Bobur qaytib kelgach, taxtni qaytadan tortib oladi. Xiyonatchi va gunohkor Muhammad Husaynni tutib, oldiga keltirganlarida uni nafaqat avf etadi, balki mehribonchiliklar ko'rsatib, shafqat qiladi: "Muhammad Husayn mirzokim, mundoq zisht va shani' harakotga iqdom qildi, bu nav' sho'r va fitna angiz va bunyodig'a ehtimom qildi, agar pora-pora qilsam, yeri bor edi, turluk-turluk azobu uqubat bila o'lmaqka sazovor edi, - deb yozadi "Boburnoma" muallifi, - chun orada bir nav' urug'luq bo'lub edi, mening tuqqon (tug'ishgan) xolam Xo'b Nigorxonimdin o'g'lonlari va qizlari bor edi, bu huquqni yod qilib, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim."

Bugina emas, o'gay ukalari Jahongir mirzo va Nosir mirzolar ham payti keldi deguncha Boburga xiyonat qiladilar, toj-taxt ilinjida unga qarshi chiqadilar. Ammo har safar Bobur ularga iltifot ko'rsatadi, kechiradi va qaytadan tarbiya qiladi. Masalan, Nosir mirzoning navbatdagi xiyonatidan keyin, yana bosh egib kelishi holatini "Boburnoma"da shunday hikoya qilinadi: "Nosir mirzo... Kobulg'a yetmish-sekszon talatg'on, oldurg'on, och-yalang'och navkar-savdari bila keldi. Ajab qodiredur, ikki-uch yil mundin burun Nosir mirzo tamom el va ulusni ko'chirib surub, Kobuldin yog'iqib chiqib, Badaxshong'a yetib, dara va qo'rg'onlarini berkitib, ne xayollar bila yurur edi, burung'i qilg'onlaridin sarafganda va xijil, ul nav' ayrilg'onlaridin sharmanda va munfail bo'lubtur. Men dog'i hech nav' yuziga solmadim. Yaxshi so'rub-istab infiol(xijolat)dan chiqordim." [1: 167]

O'gay ukasi Jahongir mirzo Boburning dushmani bo'lgan Ahmad Tanbalning fitnasiga uchib, akasidan bir necha marta yuz o'giradi, kerak bo'lsa taxtga da'vogarlik qiladi, oxir-oqibatda Andijonda parokandaliklar yuzaga keladi. Boburning mamlakatni birlashtirib, qudratli davlat tuzish haqidagi orzulari puchga chiqadi, sa'y-harakatlari bekor ketadi. Ammo Bobur ukasiga nisbatan kek saqlamaydi, uning boshiga og'ir kunlar tushib, sargardon bo'lganida panohiga oladi. Yana bir o'gay ukasi Nosir



mirzo ham Boburdan bir necha marta yuz o‘giradi, dushmanlar bilan til biriktiradi. Ammo “Boburnoma” muallifi o‘zining “kattalar ko‘tarimli bo‘lishi kerak” degan g‘oyasiga amal qilib, uni har gal kechiradi, rahm-shafqatini ayamaydi.

Mansabni suiste’mol qilish, o‘z vazifasiga loqayd bo‘lish sultanatni izdan chiqarishini bilgan sohibqiron Amir Temur kuchli huquqiy davlat o‘rnatishga harakat qilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Sohibqironning o‘g‘li Mironshoh, nabiralari Pirmuhammad va Xalil Sultonlar o‘z mansabini suiste’mol qilib, maishatga berilgani uchun xalq oldida jazoga tortilishgan, ya’ni ma’lum vaqtga qadar hokimiyatdan ham chetlatilganlar.

Bobur biror manfaat yo‘lida otaga qarshi boruvchilarni qat’iy qoralaydi. Ruboiylaridan birida bu haqda shunday deydi:

**Oludai yuz tuman maosiy bo‘lmoq,**

**Yuz ranju tuman azob xosi bo‘lmoq.**

**Ko‘p yaxshi ekin ahli xiradning qoshida**

**Kim, og‘ritibon atoni osiy bo‘lmoq.**

(Ya’ni, donishmandlar fikricha, otaning dilini og‘ritgandan ko‘ra yuz tuman gunohkor bo‘lmoq, azob-uqubatlar ichida qolmoq afzalroqdir.)

Abdullatif Mirzoning “besh kunlik o‘tar dunyo” uchun shoh va donishmand otasini o‘ldirishi, Badiuzzamon va Muzaffar mirzolarning o‘z jonlarini saqlab qolish uchun onalarini, oilalarini Shayboniyxon asirligiga tashlab qochishlari ham muallif tomonidan nafrat va afsus bilan tilga olinadiki, o‘quvchi bu tarixiy shaxslarning noaxloqiy qilmishlaridan tegishli xulosalar chiqarib oladi.

Bobur mamlakat taraqqiyoti, davlatchilikning mustahkamligini, avvalo, islomiy aqidalarga tayanish, shariat ahkomlariga izchil amal qilishda deb biladi. Jumladan, temuriylarning so‘nggi vakillaridan bo‘lgan Husayn Boyqaro sultanati tanazzulga yuz tutishida ham islomiy qadriyatlarga zarar yetishi, shariat poymol qilinishida deb hisoblaydi. “Boburnoma”ning 1496-1497 yillar voqealariga bag‘ishlangan qismida Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi mojarolar, harbiy nizolarning kelib chiqishi haqida so‘z yuritadi, shahzodalarning maishiy buzuqlik, mayparastlik va fisqqa berilganliklarini taassuf bilan qayd etadi. Bir tomonda Shayboniyxondek dushman xavf solib turganida Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari ahillik va ittifoq bilan ish tutish o‘rniga aysh-ishratga beriladilar: “Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshqa mashg‘ul edilarkim, otasidek kordiyda va kordon podshoh tushchilik yo‘l kelib, ramazondek mutabarrak va aziz oyg‘a kechalik fursat qolib, otasidan iymanmay, Tengridan qo‘rqmay, hanuz ishi chog‘ir ichmak edi, nashot bila, majlis orolik edi inbisot bila. Muqarrardurkim, mundoq bo‘lg‘on kishi andoq shikast topqay va bu nav’ o‘tgan elga har kim dast topqay”. [1:40] U sultanat mustahkamligi, jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, yurt boshqaruvchilarining xulq va atvoriga, ularning oilaviy-maishiy masalalarda ham ibratli bo‘lishlariga bog‘liqligini tarixiy-hayotiy misollar orqali keng yoritib bergen.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz ijtimoiy tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk Amir Temur va uning ko‘plab munosib avlodlari o‘zları boshqarayotgan jamiyatning gullab - yashnashi, tanazzulga yuz tutmasligining bosh omillaridan biri oilaviy ahillikda, birodarlar o‘rtasidagi mustahkam ittifoq va inoqlikda ekanligini chuqur anglaganlar. Afsuski, oilaviy-maishiy muammolar, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi toj-taxt talashuvi bilan bog‘liq nifoqlar ulug‘ va qudratli sultanatni asta-sekinlik bilan tanazzulga yetaklagan.



#### ADABIYOTLAR:

1. Boburnoma. Toshkent. "Yulduzcha" nashriyoti. 1989.
2. Temur tuzuklari. T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991.
3. Boboyev H.B. Amir Temur va temuriylar sultanati. - Toshkent: Kamalak, 1996.
4. Bobur. Devon. Toshkent. 1992.